

AL-FARRA KUFA GRAMMATIKA MAKTABI ASOSCHISI

Jo‘rabekova Sevinchxon Jo‘rabekovna

Alfraganus universiteti Filologiya fakulteti

Arab filologiyasi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilshunosligi tarixida muhim o‘rin tutgan Kufa grammatika maktabi hamda uning asoschilari Al-Farra faoliyati haqida ma’lumotlar berib o‘tiladi. Maktabning Qur’on qiroatlari va xalq nutqiga tayanganligi, Basra maktabidan farqli jihatlari hamda arab grammatik tafakkuriga qo‘shgan hissasi ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Al-Farra, Kufa grammatika maktabi, Qur’on qiroatlari, grammatik tahlil, semantik sharh, Busra maktabi, Bag’dod shahri.

Abstract. This article provides information about the Kufa Grammar School, which played an important role in the history of Arabic linguistics, and the activity of its founder, Al-Farra. The school’s reliance on Quranic recitations and folk speech, its differences from the Basra School, and its contribution to Arabic grammatical thought are highlighted based on scholarly sources.

Keywords: Al-Farra, Kufa Grammar School, Quranic recitations, grammatical analysis, semantic commentary, Basra School, Baghdad city.

Аннотация. В данной статье представлена информация о Куфской грамматической школе, сыгравшей важную роль в истории арабской лингвистики и о деятельности Аль-Фарра основателя этой школы. На основе научных источников освещаются такие особенности школы, как использование в ней коранических чтений и народной речи, её отличия от Басрской школы, а также её вклад в арабскую грамматическую мысль.

Ключевые слова: Аль-Фарра, Куфская средняя школа, чтение Корана, грамматический анализ, семантический комментарий, Басрская школа, город

Багдад.

Arab tilining grammatik tizimi VIII–IX asrlarda shakllanib, Basra va Kufa maktablari orqali rivojlandi. Bu maktablar o‘zaro raqobat va ilmiy bahslar orqali arab tilshunosligining nazariy poydevorini yaratdilar. Kufa maktabi asoschisi Al-Farra Qur’on qiroatlari, xalq nutqi va shevalarini ilmiy tahlil qilish orqali arab grammatik tafakkuriga katta hissa qo‘shdi.

Al-Farraning to‘liq ismi Abu Zakariya Yahya ibn Ziyad ibn Abdulloh ibn Mansur al-Daylami al-Farra va u 762- yilda Kufa shahrida tug‘ilgan.

Uning yashab o‘tkan yillari Abbosiylar davriga to‘g‘ri keladi. Al-Farra arab tilshunosligining Kufa grammatik maktabining eng yirik olimlaridan biri hisoblangan. Dastlab Basra maktabi olimlarining asarlarini o‘rgangan, keyin esa Kufa uslubini rivojlantirgan.

U Harun ar-Rashidning o‘g‘illari — shahzodalar al-Ma’mun va al-Aminlarga til va nahvdan dars bergan. “Al-Farra” laqabi unga chuqur fikrlaydigan, e’tiroflarni “yulib oladigan” olim ma’nosida berilgan.

Uning mashhur asarlari “Ma’ani al-Qur’an” — bunda Qur’on oyatlarining grammatik va semantik sharhi yoritilgan. Bundan tashqari “Al-Hudud” nomli grammatik asar ham yozgan. Kufa maktabiga oid grammatik qarashlarini jamlagan savol-javob “Al-Masa’il” nomli kitob yozgan.

Al-Farra arab tili bo‘yicha uch sohada mashhur hisoblangan, nahv, lug‘at va Qur’on tili. U nahv sohasi bo‘yicha Kufa maktabi nahv qoidalarini tizimlashtirgan eng muhim olimlardan biri bo‘lgan. Lug‘atda esa cho‘l arablarining sof, asl tilda so‘zlashishini yillar davomida o‘rganib, arab tilining eng toza dialektlarini (lahja) jamlagan. Qur’on tili bo‘yicha Qur’ondagi noodatiy so‘zlar, qiroatlar va nahviy masalalarni chuqur sharhlagan. Uning vafot etkan yili 822-yil milodiy yilga to‘g‘ri keladi.

Basra va Kufa tilshunoslik maktablari o‘rtasidagi ba’zi grammatik ixtilofli masalalar referat va ilmiy ishlar to‘plami, o‘zbek tilida yozilgan, Kufa va Basra maktablari o‘rtasidagi grammatik farqlarni tahlil qiladi.

Arab tili grammatikasi morfologiya va sintaksis qoidalariga asoslanadi, Basra va Kufa maktablari bu qoidalarni turlicha izohlagan. Arab tili islomda muqaddas til hisoblanadi, chunki Qur'on shu tilda nozil bo'lgan. Qur'on oyatlari Allohning so'zlari sifatida arab tilining grammatik va semantik tahliliga katta e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda yirik arabshunos olim K. Brokkelman shunday deydi: "Arab poeziyasining tili o'zining tuganmas grammatik formalari bilan ajralib turadi. Va jumalarning ifodalanishi, fikrlarning aniqligi jihatidan somiy tillar ichida rivojlangani hisoblanadi. Arab tili leksikasi juda katta so'z boyligiga ega".

762-yili Bag'dod shahriga asos solinib, uni Abbosiylar davlatining poytaxti deb e'lon qilganlaridan keyin madaniy hayot ham o'sha yerga to'plana boshladi. Arablarning ilm va madaniyat markazi Iroqning yana bir taraqqiyot (madaniyat) markazi bo'lmish Bag'dod shahriga ko'chdi. Endi har sohadagi olimlar, jumladan, nahvshunoslar ham Bag'dod tomon intila boshladilar.

Kufa va Basra maktablarining vakillari o'z faoliyatlarini Bag'dodda davom ettira boshladilarki, buning natijasida arab tilshunosligining yangi markazi tashkil topdi. Bag'dod maktabi vakillari ba'zida basraliklarning, ba'zida esa kufaliklarning fikrlarini qo'llab quvvatlashganliklari sababli Basra va Kufa maktablari o'rtasidagi ixtiloflar susaya boshladi va bu ikki maktab yo'qlikka yuz tutdi. Biroq bu maktablardan keyin faoliyat olib borgan tilshunoslik maktablari nahv ilmiga unchalik yangilik olib kirishmadi, balki ikki ustoz maktabning qilgan izlanishlari va asarlarini sharhlash bilan cheklandilar. Bu haqida Xanna Faxuriy shunday degan edi: "Basra va Kufa olimlari tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar shunchalik mukammal va yetarli ediki, ulardan keyingi avlod ulamolari, birinchi galda Bag'dod tilshunoslariga faqat nahvga oid mavjud qarashlarni sharhlash va yoritish vazifasigina qolgan edi, xalos". Yangi tashkil bo'lgan Bag'dod maktabida dastlab uchta guruh shakllangan. 1-guruhga kufalik tilshunoslardan ta'lim olgan, ularning fikr va qarashlariga ergashgan tilshunoslar kirgan. 2-guruh esa al-Mubarrad tashkil qilgan to'garaklarda va boshqa basralik olimlarda nahvni o'rgangan tilshunoslardan iborat bo'lib, ular Basra maktabining qarashlariga, fikrlariga ergashganlar va ular tutgan yo'ldan

yurganlar. Bagʻdod maktabining 3-guruhi dastlab Saʻlabning toʻgaragida, keyin al-Mubarrad tashkil qilgan toʻgaraklarda ilm oʻrganlar va natijada ikki maktab qarashlarini aralashtirib yuborganlardan iborat boʻlgan.

Basra maktabi koʻproq nazariy qoidalarga tayanadi, Kufa maktabi esa Qurʻon va hadis matnlariga asoslanadi. Kufa maktabi Basra maktabiga qarshi turuvchi ilmiy yoʻnalish sifatida shakllangan. Bu maktab vakili grammatikani Qurʻon va hadis matnlariga tayangan holda izohlagan. Ular arab tilining amaliy qoʻllanilishi va xalq nutqiga koʻproq eʼtibor bergan. Kufa grammatiklari qoidalarni koʻproq diniy matnlar asosida ishlab chiqqan. Farqlari Basra maktabi nazariy va mantiqiy yondashuvni afzal koʻrgan boʻlsa, Kufa maktabi amaliy va diniy matnlarga tayangan. Basra grammatiklari qoidalarni qatʼiy belgilagan, Kufa grammatiklari esa koʻproq moslashuvchanlik koʻrsatgan. Har ikkisi arab tilshunosligining rivojiga katta hissa qoʻshgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, arab tilshunosligi tarixida Kufa grammatika maktabi alohida oʻrin tutadi. Bu maktab Basra maktabiga muqobil boʻlib, koʻproq xalq nutqi va Qurʻon qiroatlariga tayanganligi bilan ajralib turadi. Al-Farra Kufa maktabining shakllanishida asosiy rol oʻynab, arab grammatik tafakkuriga yangi yoʻnalish olib kirdi. Uning ilmiy merosi arab tilining ilmiy asoslarini mustahkamlab, keyingi avlod grammatiklari va mufasssirlariga yoʻl koʻrsatdi. Shunday qilib, Kufa maktabi nafaqat Qurʻon tilini chuqur anglashga, balki arab tilshunosligining nazariy va amaliy rivojiga ham katta hissa qoʻshdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islamonweb – The Emergence of the Kufa School of Arabic Grammar. Hindiston, Kerela: Hudawi, 2010.
2. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРҲОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
3. The Qiraat and arts center, 2025. — Imam Al-Kisaiy.
4. Alisher Hodiyeв. B Grammatik. Toshkent: Hodiyeв Education, 2011.

5. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
6. Arab adabiyoti tarixi. Karl Brokkelmann. 1898/1902, 1-jild.
7. Jo‘rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
8. Toshmatova, S. (2025, December). THE NOTION OF MOTIVATION: EXTRINSIC AND INTRINSIC MOTIVATION. In *International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations (ICMSI)* (Vol. 1, No. 1, pp. 132-134).
9. Sh, M. (2019). A. Artistic psychologism in uzbek literature of the twentieth century. *Omega science*.—Kirov.
10. Valievna, A. D. (2026). PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF PATRIOTIC IDEAS IN MODERN UZBEK POETRY. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 4(1), 80-87.
11. Raxmonov, A. K. (2025). *Manbalar asosida Mitarriziy va Mutarriz ilmiy faoliyatining o‘rganilishi. Til va adabiyot.uz*, (12), 247–248.
12. Raxmonov, A. K. (2024). *Creating favorable ecosystems for youth entrepreneurship in Uzbekistan*. In *Collection of Articles of the International Scientific Conference on the Topic of “The Future of Youth and Entrepreneurship in Education” Within the 10th UNESCO–APEID (Educational Innovations Programme for Asia-Pacific Development) Meeting on Entrepreneurship in Education* (pp. 67–71). Alfraganus University.
13. Qo‘chqarovich, K. U. (2026). REY BREDBERINING “ERTAGA QIYOMAT” HIKOYASIDA APOKALIPSIS VA BADIY PSIXOLOGIZM. "*Alfraganus" xalqaro Ilmiy Jurnali*, 3(4), 11-21.
14. Qo‘chqarovich, K. U. (2025, October). REY BREDBERI VA HOJIAKBAR SHAYXOV IJODIDA BADIY PSIXOLOGIZM TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 461-464).